



LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI

I

TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“LINGVODIDAKTIKANING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari to‘plami
(2022-yil 18-may)

Toshkent – 2022

Lingvovidaktikaning dolzARB masalalari. I. Xalqaro konferensiya materiallari. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 2022. – 530 b.

Ushbu to‘plam Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Lingvovidaktika kafedrasini tomonidan tayyorlangan.

Mas’ul muharrir:

L.R.Raupova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

B.R.Mengliyev – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

G.H.Hamroyev – Ma’naviyat va davlat tilini rivojlantirish departamenti bosh mutaxassisi, dotsent, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Sh.S.Abdiraimov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

K.M.Mavlonova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini dots.v.b., pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD).

I.A.Ishonxanova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini o‘qituvchisi.

D.A.To‘rayeva – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini katta o‘qituvchisi.

H.M.Ortiqova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini o‘qituvchisi.

F.A.Saidova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini o‘qituvchisi.

V.E.Alimbekova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini o‘qituvchisi.

D.O.Israfilov – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini o‘qituvchisi.

H.M.Baxtiyorova – Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Lingvovidaktika kafedrasini magistranti.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti Kengashining 2022-yil 10-sonli qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarining ilmiy va uslubiy jihatlariga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

TILSHUNOSLIKDA SHAXSIY YOZISHMALARNING LINGVISTIK TADQIQI

Dildora To‘rayeva,
A.Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
“Lingvodidaktika” kafedrasи
o‘qituvchisi

Annotation

Ushbu maqolada shaxsiy yozishmalarning mavzuviy tili, shakliy va ma’noviy turlari haqida mulohaza yuritiladi. Anonim va muammoli shaxsiy yozishmalar farqlanadi va ularning lingvistik tahlil usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik ekspertiza, shaxsiy yozishma, anonim xat, muammoli xat, shaxsiy yozishma turi, elektron bosma yozishma, audio yozishma, video yozishma, qo‘lyozma*

Annotation

This article reviews about the thematic language, formative and spiritual types of personal correspondence. Anonymous and problematic personal correspondence are distinguished and reflect on the methods of their linguistic analysis.

Keywords: *linguistic expertise, personal correspondence, anonymous letter, problematic letter, personal correspondence type, electronic printed correspondence, audio correspondence, video correspondence, handwritten*

Bugungi kunda ko‘pgina sohalar qatori tilshunoslikda ham tub sifat o‘zgarishlari yuzaga kelyapti. Antroposentrizm nazariyasi asosida tilshunoslikda turli fanlarning integratsiyalashuvi kuzatilyaptiki, bundan maqsad jamiyat farovonligiga erishish, inson manfaatlarini ulug‘lashdir. Zotan, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, davlat tiliga bo‘lgan yuksak e’tiborni biz o‘zimizdan, o‘z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak.

Keyingi yillarda nazariy me’yorlarning amaliy ifodasini o‘zida mujassam etgan qator tilshunoslik sohalari vujudga keldi. Bu, o‘z navbatida, insoniyat uchun xizmat qiladigan qator ilmiy-amaliy tadqiqotlarning yaratilishiga sabab bo‘ldi.[Mengliyev, Nigmatova, 2020:378-385] Taraqqiyot insoniyatga har qancha ijobiy va salbiy ta’sirini o‘tkazmasin, olim va olimalarning sa’y-harakatlari, izlanishlari natijasida inson manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa inson sha’ni, qadr-qimmati, obro‘yini ulug‘lashga munosib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda matn tilshunosligi va aloqa nazariyasi, qolaversa, sud-huquq tizimidagi lingvistik ekspertizaning eng asosiy obyektlaridan biri shaxsiy yozishmalar hisoblanadi. Shaxsiy yozuv – biror narsani o‘ylash yoki shaxsiy tajribani boshqalar bilan baham ko‘rish zarurati tug‘ilganda foydalaniladigan vosita.[\[https://koreajob.ru/uz/sekrety-interesnyh-istoricheskikh-pisem-istoriya-pisem-interesnye-fakty/\]](https://koreajob.ru/uz/sekrety-interesnyh-istoricheskikh-pisem-istoriya-pisem-interesnye-fakty/) Shaxsiy yozishmalar tushunchasi qay mavzu va yo‘nalishda bo‘lishidan qat’i nazar insonning individual yondashib amalga oshirgan harakatidir. Shaxsiy yozishmalar bir tomonlama va ikki tomonlama munosabatlarda bo‘lishi mumkin. Xabar yo‘llovchi va qabul qiluvchisi aniq bo‘lgan shaxsiy yozishmalar – ikki

tomonlama yozishmalar sanaladi. Ammo xabar yo'llovchi aniq-u, qabul qiluvchi noaniq yoki xabar yo'llovchi noaniq-u, qabul qiluvchi aniq bo'lgan bir tomonlama munosabatdagi shaxsiy yozishmalar ham mavjud. Masalan, biror shaxs boshqa birovning o'limiga sababchi bo'lib qolishi va uning nomidan marhumning o'zi aybdorligi xususida ma'lumot qoldirishi mumkin. Bunda yozishma ijrochisi aniq, ammo qabul qiluvchilar marhumning oilasi, qolaversa, fuqarolar huquqini himoya qiluvchi davlat tashkilotlaridir.

Shaxsiy yozishma tushunchasi faqatgina qo'lyozma tarzidagi maktublardan, yoki elektron tarzidagi SMS, e-mail va ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalardan iborat emas, balki audio va video yozishmalar ham uning tarkibiga kiradi. Bu borada Moskva yuridik instituti olimi O.Y.Antonov shaxsiy yozishmalarning lingvistik ekspertizasini tadqiq etgan va ularni quyidagi turlarga ajratgan:

- 1) maktub shaklidagi shaxsiy yozishmalar;
- 2) SMS va ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy yozishmalar;
- 3) audio tarzidagi shaxsiy yozishmalar;
- 4) video shaklidagi shaxsiy yozishmalar.[Антонов, 2018:5-11]

Shaxsiy yozishmalarning birinchi turi maktub shaklida bo'lib, uning rivojlanish tarixi uzoq o'tmishtga borib taqaladi. Maktublar va pochta xizmati haqidagi dastlabki ma'lumotlar qadimgi Yunonistondagi Ossuriya va Bobil davlatlari bilan bog'liq. Ossuriyaliklar miloddan avvalgi 3-ming yillikdayoq konvert sifatida loydan foydalanishgan. Avvalo, xat matni loy qatlami bilan qoplangan va ustiga qabul qiluvchining manzili yozilgan. Keyin planshet shaklidagi loydan yasalgan konvertlar ichidagi xatning maxsus ipi yoqilgan va uloqtirilgan. Xat manziliga yetgach, qabul qiluvchilar qotirilgan loyli konvertni bo'laklab, xatni o'qib chiqqan.[<http://srtdzi.ru/uz/fizika/osobennosti-gostinic-i-pochtovoi-sluzhby-v-drevnem-rime-istoriya.html>] Demak, maxsus konvert shaxsiy yozishmaning ham sirliligini ta'minlagan, ham manzilga uloqtirish uchun qulaylik yaratgan. Shuningdek, daraxt po'stlog'i, bambuk, taxta, taroshlangan tosh kabilarda yozuv amalga oshirilgan. Bugungi kunda yozuv vositasi sifatida qog'oz va elektron gadjetlar xizmat qiladi.

Shu o'rinda lingvistik ekspertiza xatshunoslik ekspertizasining taraqqiyot bosqichi deyish mumkin. Ya'ni xatshunoslik ekspertizasida muammoli hamda anonim yozishmalarning shakliy xususiyatlari: yozuvning dinamikasi, harflarning kattakichikligi, shakli (burchaksimon, ovalsimon, yotiq, to'g'ri kabi), yozuv vositasining turi, yozuv uslubi, bosim kuchi (yozuv vositasi kuchli bosimda, kuchsiz bosimda amalga oshirilishi) kabilar o'rganiladi.[Xolmatova, 2021] Lingvistik ekspertizada esa muallifi noma'lum bo'lgan, muammoli deb topilgan yozishmalarning mazmuniy xususiyatlari ko'proq ahamiyat beriladi. Yozishmadagi so'zlarning ma'no darajalari, inson qadr-qimmatiga ta'sir kuchi kabi xususiyatlari o'rganiladi. Bunda matn tarkibiy qismlarini, avvalo, komponentlarga ajratib leksik, grammatik, sintaktik, punktuatsion tomonlari butun-qism munosabati asosida tahlil qilinadi.[Kim, 2019:507-509] Yozishma butun holatda o'rganiladi, ya'ni umumiylazmuni, nutq yo'nalishi, tahdid, tahqir bor-yo'qligi kabi qabul qiluvchiga nisbatan munosabatlar umumiylazmuni, tarzda aniqlab olinadi. So'ng matn qurilishidagi asosiy birliklar farqlanadi, avvalo, ko'zga tashlanadigan jihatlari ajratib olinadi. Masalan, noadabiy leksik, grammatik va fonetik unsurlar bunda muhim belgi vazifasini bajaradi. Saralab olingan birliklarning uslubiy,

hududiy, shaxs yoshi va jinsiga ko‘ra jihatlari atroficha tahlil qilinadi.[To‘rayeva, 2021:7-15] Har ikkala ekspertizaning umumiyligi tomoni shundan iboratki, tahlil jarayonida dalil sifatida olingan materiallar o‘zaro qiyoslash, taqqoslash asosida yakuniy xulosalar hosil qilinadi.

Tadqiqotchi K.Dolinnings so‘zlariga ko‘ra, “xat (nutqning yozma shakli) – yozuvchi tomonidan oldindan o‘ylangan, qayta semantik jihatdan sintez qilingan va aytmoqchi bo‘lgan fikrining eng yaxshi variantlaridan birini bayon etadigan matni”. Yozma nutq tilning qayta ishlangan shakli bo‘lib, uning eng kichik tafsilotlarigacha qayta tahrir qilish va qayta yaratish undan keyingina aniq bir xulosaga kelish mumkin bo‘lgan jarayon mahsulidir. Shuning uchun ham yozma nutq og‘zaki nutqqa nisbatan aniq va tushunarliroqdir. Shaxsiy yozishmalarning lingvistik tahlilida tilshunoslik, sotsiolingvistika, areal lingvistik, lingvistik geografiya, matn tilshunosligi, pragmalingvistika, psixolingvistika bilan bir qatorda psixologiya, biologiya, fizika kabi soha mutaxassislarining xulosalari muhim o‘rinda turadi.[\[https://youtu.be/7HCGob75xGQ\]](https://youtu.be/7HCGob75xGQ) Shunday ekan, tahlil jarayonida faqat tilshunos-ekspertning xulosalari bilan chegaralanib qolmay, balki turli soha mutaxassislarining xulosalari bilan umumlashtiriladi. Hech bir tarmoq alohida rivojlanmaganidek, lingvistik ekspertizada turli fanlarning integratsiyalashuv jarayoni aniq xulosa hosil qilishga yordam beradi. Bu lingvistik ekspertizada muallifning temperamenti, psixofiziologik holati, axloqi, ijtimoiy mavqeyi, hududiy mansubligi kabilalar haqida ma’lumot olishga yordam beradi, huquqshunosning muammoli yozishmalarlarni ochib berishida ancha qo‘l keladi.

Kriminalistikada shunday jihatlar mavjudki, jinoyat sodir etilgan joy va uning turi kabi jarayonlar video tarzida saqlanib qoladi, ammo jinoyatni sodir etgan shaxs xira holda ko‘rinadi yoki maxsus niqobda harakatni amalga oshiradi. Bunday vaziyatda shaxsning nutqiy faoliyatini lingvistik ekspertiza qilish masalaga oydinlik kiritadi. Ovozning tiniqligi, nutqni tashkil etuvchi fonemalar, tezlik va talaffuz nisbiy aniqligi, uzunligi va strukturasi, belgi va so‘z hajmi, muayyan so‘zdan foydalanish, ijtimoiy vaziyatga ko‘ra so‘zlardan foydalanish, xususan, jarayon suhbatdoshlarining nutqiy imkoniyati, qobiliyatiga yo‘naltirilganligi – bularning barchasi shaxsni tavsiflovchi ko‘plab kompleks ko‘rsatkichlardir. Yuqoridagi fikrga qo‘shimcha tarzda E.Sepir yana shunday izoh beradi: insonning barcha xatti-harakatlari nutqida namoyon bo‘ladi.[Sepir, 1993:656] Ya’ni an’naviy fonoskopik ekspertizada ovozning tembri, to‘lqini, baland-pastligi kabi akustik va artikulatsiyaviy xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lsa, lingvistik ekspertizada so‘z va tovushlarning orfoepik va transkripsion xususiyatlari: tovushning yumshoq-qattiqligi, qisqa-cho‘ziqligi, tor-kengligi, lablangan-lablanmaganligi kabi talaffuz belgilari o‘rganiladi. Bu yozishma muallifining qay hududga mansubligini aniqlashga yordam beradi. Xuddi shuningdek, audio yozishmalarda ham yuqoridagidek lingvistik tahlil amalga oshiriladi. Zotan, inson har qancha gapirish uslubini o‘zgartirishga harakat qilsa ham, baribir individual xususiyatlari uning nutqida element tarzida bo‘lsa ham aks etmay qolmaydi.

Lingvistik ekspertizaning an’naviy sud ekspertizasidan farqi shundaki, nazariy tilshunoslik bilimlarini amalda tatbiq etish asosida matndagi so‘zdan tortib tinish belgilarigacha, xoh dalil matni yozma, xoh og‘zaki bo‘lsin, tubdan, izchil tahlil qilinadi. Bu matn muallifini aniqlashning eng yaqin taxminlarini berishga yo‘l ochadi.

Bu kichik element bo'lsa ham, tilshunos ekspert uchun asos vazifasini bajaradi. Zotan, kichik elementlar tahlili jamiyatdagi jabrdiyda insonlar taqdirini belgilashga asos bo'lishi mumkin.

Shaxsiy yozishmalarning qo'lyozma, elektron, audio va video shakldagi turlarining o'ziga xos jihatlariga ko'ra lingvistik ekspertizani fanlar integratsiyalashuvi tarzida amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shaxsiy yozishmalarning shakliy turini aniqlash uning mazmuniy guruhlarini ham o'rganish va tahlilga tortishda asos vazifasini o'taydi. Bu lingvistik ekspertizaning to'laqonli bajarilishiga zamin hozirlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

10. Антонов О.Ю. Особенности использования специальные знаний в области лингвистики при изучении электронной переписки в ходе расследования половых преступлений в отношении несовершеннолетних // – Москва, 2018. – С. 5-11.

11. Ким Л.Г. Холистические принципы проведения идентификационной автороведческой экспертизы разножанровых текстов. Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы: сборник научных работ по итогам Международной научной конференции «Современная теоретическая лингвистика и проблемы судебной экспертизы» (Москва, 1–2 октября 2019 г.). – М.: Государственный институт русского языка им. А. С. Пушкина, 2019. – С. 507-509.

12. Mengliev B.R., Nigmatova L.H. Problems of language, culture and spirituality in general explanatory dictionaries of Uzbek language / International Journal of Psychosocial Rehabilitation. ISSN: 1475-7192. –London, 2020. № 24. – 378-385 p.

13. Mengliyev B.R., To'rayeva D.A. Methods of linguistic examination by anonymous letters in the uzbek language // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. <http://berlinstudies.de/index.php/berlinstudies/article/view/29/29> Volume 1, Issue 1.2, – Berlin, 2021. Pages: 101-105.

14. Сепир Э. Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 656.

15. To'rayeva D.A. O'zbek tilidagi anonim xatlarning milliy korpus asosidagi tahlili, o'rni, ahamiyati// International journal of world languages. <http://www.ejournals.id/index.php/IJWL/article/view/177/163>. Volume 1, No. 2, – Polsha, 2021. Pages: 7-15.

16. To'rayeva D.A. Shaxsiy yozishmalarda lingvistik ekspertiza mohiyati. //O'zMU xabarlari. – Toshkent, 2021. № 4. – B. 268-271

17. <http://srtdzi.ru/uz/fizika/osobennosti-gostinic-i-pochtovoi-sluzhby-v-drevnem-rime-istoriya.html>

18. <https://koreajob.ru/uz/sekrety-interesnyh-istoricheskikh-pisem-istoriya-pisem-interesnye-fakty/>

19. <https://lex.uz/docs/-2307248>

20. <https://lex.uz/docs/111453>

MUNDARIJA

I. ONA TILI TA'LIMI VA ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIKA MASALALARI

Sirojiddinov Sh.S.

Kirish so'zi 4

Rahmonqulov A., Jabborov B.

Til o'qitilishida kommunikativ yondashuv va interfaol usullarni qo'llash 6

Yusupova Tursunoy

Matn ustida ishslash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurini o'stirish..... 12

Mavlonova Klaraxon

O'quvchilarga matn tuzilishiga doir qoidalarni o'rgatish xususida 15

Abdiraimov Shohruh

Ona tili ta'limida o'qib tushunish ko'nikmasini baholashning nazariy va metodik asoslari 20

Yuldasheva Shahlo, Jumamuratova Sevara

Innovatsion til ta'limi sharoitida elektron lingvodidaktikaning ahamiyati..... 37

Hazratqulov Mutallib

Tasviriy insho xususida 41

Qurbanova Xolbibi

Ona tilini o'qitishda zamonaviylik 46

To'rabekova Aziza

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining lingvistik kompetensiyalarini shakllantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish pedagogik muammo sifatida 49

Abdijamilova Mahfuza

Matnni o'qish va tushunishning pedagogik-psixologik sifatlari 52

Sharopova Feruza

Metalingvistik omillarning o'qib tushunishga ta'siri 56

Turg'unova Nilufar

Lingvistik bilimni kontekst orqali o'qitishda xorij tajribasi..... 61

Egamqulova Kimyoxon

Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni hayotiy vaziyatlarga tayyrolash..... 64

Navruzova Xosiyat

7-sinf o'quvchilarida qo'shma gap shakllarining o'zlashtirilishi..... 67

Xasanova Yulduzzon

Morfologik bilim berish tamoyillari 73

Avezova Dilnura

Orfoepik mashq – ko'nikma va malaka hosil qilish asosi 77

Arolova Nafisa

Lingvodidaktikada psixologik yondashuv 80

Xayriddinova Mohina

Yozish ko'nikmasini shakllantirishda rivojlantiruvchi usullarning ahamiyati..... 82

Yusupova Aziza

Til ta'limida integratsiya 87

Mamajonova Navruza

O'quvchilarda so'z o'zlashtirish masalasining o'r ganilishi 90

Xakimova Nilufar

Ona tili darslarida o'quvchilarning o'qib tushunish ko'nikmalarini shakllantirishning yondashuv va tamoyillari 93

Normuminova Dilobar	
O‘qish savodxonligining rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar	97
Baxtiyorova Husnora	
6-sinf ona tili darslarida matn tuzulishini o‘rgatishning mazmun-mohiyati	100
Davronova Zebiniso	
O‘quvchilarda tasviriy matn yaratish ko‘nikmasini shakllantirish zarurati	103
Munavvarova Mohira Abduhalil qizi	
Ona tili darslarida yozma savodxonlikni rivojlantirishning yangicha usullari	107
Yo‘ldosheva Shahnoza	
Ravish so‘z turkumining maktab darsliklarida berilishi	110
Abdusattorova Farangiz	
1-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligida berilgan ayrim iboralarning ma’nolari.....	114
Xomidjonova Yulduzzon	
O‘quvchilarda eshitib tushunish ko‘nikmasini shakllantirish zarurati	116
Nomozova Malika	
Ona tili ta’limida lingvisik malakani shakllantirishda nutqiy vaziyatning o‘rni	120
Botiraliyeva Mohinur	
Tinglab tushunishning o‘quvchilar og‘zaki nutqini shakllantirishdagi o‘rni	123
Tursunova Dildora	
O‘qib tushunish ko‘nikmasini rivojlantirishning ahamiyati	126
Masharipova Nodira	
Grammatik tushunchalarni o‘rganishda o‘quvchilarning yozma nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish	130
Axatova Dilnoza	
Ijtimoiy tarmoqlarda yo‘l qo‘yiladigan xatoliklar ustida ishlash usullari	134
Lushiyeva Ro‘shana	
Ma’lumot-axborot hujjatlari bilan ishlash muammolari	137

II. IKKINCHI TIL VA CHET TILLARNI O‘QITISH METODIKASI MASALALARI

Niyozmetova Roza	
Ta’lim jarayonida o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish	141
Koblanova A.Z.	
Stylistic nature of etiquette stereotypes in the field of language communication	144
Asilova Gulshan	
O‘zbek tili ta’limida tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirish xususiyatlari.....	149
Гафуров Б.З.	
Лингводидактические основы сопоставительного анализа текстов	
Рекламы сферы медицины (на материале русского и узбекского языков).....	155
Негматова М. М., Мингбоева О. А. (Тоҷикистон)	
Дидактическая игра как метод обучения.....	159
Жумашева Г.Х., Аллабаева А., Султанова У., Жумабоева Р.	
Обучение каракалпакскому языку, как основная форма коммуникации	
Губайдуллин А.Ф, Машарипова В.С.	
Дидактическое использование театральной постановки в процессе обучения английскому языку.....	170
Хамирова Н.Т.	
Методика РКМЧП в формировании языковой и речевой компетенции студентов при изучении иностранных языков	176

Замира Мирзамбетова	
Речевой этикет как лингвокультурологическое явление	181
Inogamova Nargiza, Topildiyeva Feruza	
О‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda samaradorlikka erishish borasidagi ayrim mulohazalar	185
Ishonxanova Iroda	
О‘zbek tili darslarida Navoiy ijodini o‘rganish	190
Шодиева Диляром	
Проектная работа как стимул развития профессионально-языковых компетенций студента	194
Israfilov Doston	
О‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda madaniy aspektidan foydalanishning nazariy asoslari	197
Ro‘zmetova Nigora	
O‘zbek va rus tillarida oilaga oid atamalarning uslubiy xususiyatlari	203
Xojiyeva Iroda	
Til ta’limidagi yondashuvlar va tilni ikkinchi til sifatida o‘qitishda jahon tajribasidan foydalanish	206
Рустамова М.	
Методические аспекты изучения особенностей построения системы образов в творчестве Владимира Набокова	211
Холметова У.	
Методика работы над орфоэпическими ошибками в средствах массовой информации и их типология	214
Akramova Marjona	
Rus sinflarda o‘zbek tilida o‘qib tushunish malakasini rivojlantirishning nazariy va metodik asoslari	217
To‘xtayeva Dilnoza	
Chet tilini o‘qitishda lug‘at boyligini shaklantirish va so‘z tanlash tamoyillari	220
Isroilova Zuxra	
Audiovizual materiallarning til o‘qitishdagi ahamiyati	227
Abduakimova Sabina	
Chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuv	230
Maftuna Toshpulatova	
O‘zbekistonda bilingvism va multilingvism	234

III. TILSHUNOSLIKNING AMALIY MASALALARI

Berdialiiev A.	
Til tizimida amal qiluvchi shakliy-ma’noviy nomutanosibliklar haqida.....	237
Mengliyev B., To‘rayeva D.	
Lingvistik ekpertiza nima?	243
Raupova Laylo, Safarova Guzel	
Monologik va diologik nutqda evfemizmlarning ifodalanishi	247
Hakimova Muhayyo, Qodirova Nigora	
O‘zbek tilida “ota” komponentli maqollarning milliy-madaniy xususiyatlari	252
Abduraxmonova Nilufar, Boysariyeva Saodat, Topildiyeva Feruza	
Leksikografik tadqiqotlarda mobil lug‘atlar	256
Gulyamova Shaxnoza	
O‘zbek tili semantik analizatori uchun turli turkum doirasidagi omonimlar qurshovini lingvistik modellashtirish.....	259
Turdibekov Mo‘min	

Qadimgi turkiy til leksikasida yuzaga kelgan o‘zgarishlarni “Devoni lug‘otit turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq” asarlari misolida solishtirib o‘rganish	263
Umurzoqova Marhabo	
Badiiy matnda lisoniy shaxsni belgilashning gender omili	267
Abdullayev Sarvar , Saydaliyev Muhammad Hoji	
Qur‘on – tarjima – qur‘on ilmlari	271
Asadov To‘lqin, Azimova Aziza	
Toshpo‘lat Ahmad she’riyati fonostistikasi xususida	276
Yuldasheva Nilufar Muxitdinovna	
Til o‘rganish maqsadi va ta’lim faoliyati sifatida “vazifa”ning ta’riflari	280
Zaripov Rafiqjon	
Etnosotsiopragmatika maqsadi, vazifalari va tadqiq birliklari	283
Suvonov Zavqiddin	
Badiiy matnning lingvistik ekspertizasi o‘rganilishiga doir	286
To‘rayeva Dildora	
Tilshunoslikda shaxsiy yozishmalarning lingvistik tadqiqi	290
Rozmetova Zamira, Mukhtarova Nozima	
Lexicography and terminography as the applied branches of lexicology.....	294
Abdullaeva Nodira	
Contemporary research in functional linguistics	298
Safarova Guzal	
Ijtimoiy hayotda tabu hamda evfemizmlarning o‘rni va bu masalalarga oid qarashlar.....	303
Mukhamedova Lola	
French military terms in english language and it’s translation into uzbek.....	307
To‘raxo‘jayeva A., Abdusattorova F.	
Ijtimoiy-siyosiy leksemalarni mazmuniy maydon asosida o‘rganish	310
Turaeva Umida	
Linguistic peculiarities and problems of legal translation.	313
Сотимова Гулру	
Особенности неологизмов в общественно-политической лексике.....	316
Niyazova Gulnoraxon	
O‘zbek va ingliz detektiv asarlari tilining qiyosiy pragmatik tadqiqi	321
Sultanova Shahnoza	
Terminologik tizimning shakllanishi	326
Zaripov Rafiqjon	
Etnosotsiopragmatikada amaliy mashg‘ulotlarni tashkillashtirish, topshiriqlar va ular bilan ishslash	330
Mardonova Sarvinoz	
Kompozitsiya usulida yuzaga kelgan muallif nutqi neologizmlari xususida	334
Bayjigitov Omonulla	
Turkiy tillar frazeologiyasini tadqiq etish masalalari	338
Alimbekova Vazira	
Dardoq qishlog‘ida ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari	343
Nizomiddinova Dildora	
Farg‘ona viloyatidagi Bostonbuva ziyoratgohi – antroponekronimi xususida	347
Saidova Farida	
Hozirgi o‘zbek lug‘atchilik amaliyotida leksik sinonimlarga darajaviy yondashuv.....	349
Ortiqova Hamida	
Assotsiativ maydon va uning xususiyatlari	353
Nurmanov Furqat	
Badiiy asar tilining fonopoetik xususiyatlari	356